

## QO'QON-ROSSIYA MUNOSABATLARI TARIXIGA OID

**G'anijonova SH.A**

*Nizomiy nomidagi TDPU*

*1-kurs magistranti*

**Annotasiya:** *Maqola Turkiston o'lkasining Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davri tarixi hamda uning Qo'qon xonligini bosib olishi va bu tarixiy jarayonlarni yoritib berishga qaratilgan manbalar va ulardagi ma'lumotlarning tahliliga bag'ishlangan. Shuningdek Rossiya imperiyasi va Qo'qon xonligi o'rtasidagi munosabatlar tarixiga oida ayrim masalalar yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Rossiya imperiyasi, Qo'qon xonligi, Turkiston bosqini, M.Chernyayev, Chimqo'rg'on, Kumushqo'rg'on, Oqmasjid, qal'a.*

XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida ham O'rta Osiyoda tarix ilmi va tarixiy bilimlarga bo'lgan qiziqish zarracha susaymadi. Chunki halqlarimiz qadimgi davrlardan oq tarix ilmini g'oyatga qadrlaganlar tarixni buzib ko'rsatishga aslo yo'l qo'ymaganlar. Bu davrda ham tarix ilmini rivoj toptirilganligi yozilgan ko'plab tarixiy asarlar misolida yaqqol ko'rinadi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Qo'qon tarixnavisligi maxsus fan darajasiga ko'tarildi. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Qo'qon xonligi tarixshunoslik maktabi rivojlanib, xonlik hayotining barcha sohalarini yoritib beruvchi ko'plab qimmatli asarlar yaratildi. Ular orasida mahalliy tarixchilar tomonidan Rossiya imperiyasining Qo'qon xonligini bosib olishi voqealarini aks ettiruvchi bir qator asarlar yozib qoldirilgan [1.509-511].

Turkistonning Rossiya tomonidan istilo qilinishi arafasi va bosib olinishi davrining haqqoniy tarixini tiklashda Ishaqxon to'ra Ibratning "Tarixi Farg'ona" [2] (O'zb Resp FA SHI qo'lyozma 5751-raqam), Mulla Mirza Olim Muhammad Rahim o'g'lining "Ansab as-salotin va tavorih al-havoqin" (qo'lyozma 3753-raqam), Mahmud Hakim Yayfoniyning "Tarix falotin Farg'ona (litografiya, Qo'qon, 1914), Mulla Niyoz Muhammad Ho'qandiyning "Tarixi Shoxruhiy" (Qozon 1885), Muhammad Marg'iloniyning "Badavlatnoma" (10 qo'lyozma, f.s 587-690), Hakimxon to'raning "Muntaxab at tavorih" (qo'lyozma 594-raqam) kabi asarlari muhim manba bo'lib hizmat qiladi [1].

Rus davlati Buxoro va Xiva xonliklariga qarshi urush olib borayotgan yillari Qo'qon xonligida chuqur siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz hukm surmoqda edi. Bu vaqtlarda xonlik yerlarining yarmi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan bo'lib, uning chegarasi asosan Farg'ona vodiysidan iborat edi [3]. Rossiya imperiyasi Qo'qonga hujumi davomida juda ko'p joylarni vayron qildi. "Muntaxab ut tavorih" da tasvirlanishicha, ikki soat davomida 18 ta nadimning uyi vayron qilinadi [4]. 1852-yilda Chimqo'rg'on, Kumushqo'rg'on qal'alari bosib olindi, yozda Oqmasjid qal'asiga hujum boshlandi. Qal'a mudofasida 3 ta to'p va 300 nafar mudoofachi turgan. 1864-yilda Avliyoota shahri (hozirgi Jambul) qamal qilinib, to'plardan

o'qqa tutiladi. Bu shahar mudofasida nafaqat erkaklar, balki ayollar, xattoki yosh bolalar ham xar bir ko'cha uchun jang qiladillar. 1864-yil iyunda imperiya qo'shinlari Turkiston shahriga yurish boshlaydi. Shahar aholisi Ahmad Yassaviy maqbarasini saqlab qolish uchun taslim bo'lishga majbur bo'ladi [5].

Shu tariqa 1860-yillarning birinchi yarmida Qo'qon xonligiga qarshi olib borilgan harbiy yurishlar natijasida mahalliy aholining keskin qarshiligi va fidokorona janglariga qaramay, qator shaharlar, hususan, Toshkent shahri imperiya qo'shinlari tomonidan bosib olinadi. Qo'qon hududining bosib olinga yerlarida 1865-yilda Rossiya imperiyasi Turkiston viloyatini tashkil qiladi va bu yerda ulug' davlatchilik va bosqinchilik siyosatini shiddat bilan yurgizdilar. O'lkada yuzaga kelgan og'ir siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayot milliy ozodlik kurashining negizini tashkil etdi. Bu kurash mustaqillik va ozodlik ruhi bilan sug'orilgan umumxalq harakati edi. u dastavval Farg'ona vodiysida paydo bo'ldi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki Qo'qon xonligi qo'shinlari Rossiya imperiyasi qo'shinlari tajovuziga qarshi kurash jarayonlarida qo'llagan harbiy taktikada shaharga bostirib kelgan dushmanga qarshi hujumga o'tish, dushman bilan shahar tashqarisida to'qnashish kabi usullar yaxshi natija berganligini ayniqsa, Toshkent mudoofasida yaqqol namoyon bo'lgan deyish mumkin. Ayniqsa ko'ngilli xalq lashkarining qisqa fursatda to'planib, jangga kirishi, ukar bilan bir qatorda dushmanga qarshi yoshu qari, yoshlarning bir safda turib jang qilishi yoki yordamlashishi xalqning vatanparvarlik tuyg'ulari yuqori darajada ekanligidan dalolat berar edi. ammo xonlikda istilo arafasida siyosiy vaziyatning barqaror emasligi, qo'shni mamlakatlardan tashqi yordam berilmaganligi, qurol-yarog' texnikasining nisbatan qoloqligi kurashga kata tayyorgarlik bilan kelgan dushman g'alabasini ta'minladi [5].

H.N.Bobobekov, H.Ziyoyev, Sh.Karimov, R.Shamsutdinov, H.Sodiqov, P.Ravshanov, Q.Usmonovlarning mustaqillik yillarida olib borgan ilmiy tadqiqotlarida Qo'qon-Rossiya munosabatlari keskinlashganligini, rus qo'shinlarining xonlikning ayrim hududlarini bosib olganligi haqida ma'lumotlar berganlar. Mualliflarning o'z asarlarida asosiy man'balardan foydalanganliklari sezilib turadi [6].

XIX asrda Turkistonda podsho Rossiyasining mustahkam o'rnashib olishi kuzatiladi. U o'z siyosiy agentlari (vakillari) yordamida mahalliy xon va amir vakolatlarini cheklabgina qolmay, ularni qo'g'irchoqqa aylantirib, rus va g'arb sarmoyadorlarining ishlashi va yashashi uchun sharoit yaratadi, turli kompaniyalar, aksiyadorlik jamiyatlari manfaatini ko'zlaydi. Ayni chog'da mahalliy aholining talab va ehtiyojlari nazarga olinmay qo'yildi, diniy e'tiqodlari, urf-odatlar bilan hisoblashmaslik, ularni mensimaslik kuchaydi. Hayotiy, ilmiy saviyasi yuqori bo'lgan qozilar tajribasiz kishilar bilan almashtirildi, poraxo'rlik, ijtimoiy-siyosiy adolatsizlik avj oldi. Madrasa va maktablar faoliyatini cheklash, mahalliy joy nomlarini ruscha atamalar bilan almashtirish, hatto mahkama jarayonida qozilar bo'yniga xoch taqtirishgacha borildi. O'sha davr ahvolini Muhammadali xalfa Sobir o'g'li (Dukchi eshon) xalqqa qarata o'z „Xitobnoma“si (1898)da yaxshi bayon qilgan. Millat istiqbolini o'ylovchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari — hunarmand,

dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mavjud edi. O'z navbatida Rossiyaning mintaqadagi asosiy tayanchi bo'mish gubernatorlik Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand, Yettisuv va Kaspiyorti viloyatlarini o'z ichiga olib, poytaxti Toshkent shahri edi. Shu tarzda Rossiya egallagan hududlarda tashkil topgan Turkiston general-gubernatorligiga hozirgi O'zbekiston, Qirg'iziston va Turkmanistonning talay qismi qaragan edi.

Yuqoridagi fikrlarga xulosa sifatida aytib o'tish kerakki, Qo'qon – Rossiya munosabatlari tarixi va bu munosabatlari tarixini yoritib beruvchi asarlar bugungi kunda ko'pchilikni takshil qiladi va bu asarlar, ularda keltirilgan ma'lumotlarni mahalliy tarixchilar va arxiv hujjatlari bilan qiyosiy o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etishi mumkin.

#### ADABIYOTLAR:

1. Ilhomov Z.A. O'zbekiston tarixi (XVI-XX asr boshlari).– Toshkent: “Navro'z “ nashriyoti, 2021. 509-511- bet.
  2. F.A.Ahmadjonov “Rossiya imperoiyasi Markaziy Osiyoda” T; 2003.
  3. H.Ziyoyev “Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash” “Sharq”, Toshkent. 1998.
  4. X.N.Bobobekov “Qo'qon tarixi”. Toshkent “Fan” 1996.
  5. H.Ziyoyev “Rossiyaning Qozon, Astraxan, Sibir, Qrim, Kavkaz va Turkistonga tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurashlar” VI-jild. T; 2012.
  6. D.X.Ziyayeva “O'zbekistonda harbiy ish tarixidan” T; 2012.
  7. Meros. T; 1991. B.271-272.
- Карабаев, М. К., Абдуманнонов, А. А., & Махмудов, Н. И. (2013). Об интеллектуализации медицинских информационных систем. *Современная наука: актуальные проблемы теории и практики. Серия: Естественные и технические науки*, (9-10), 60-65.